

IDEONIMLARNING TASNIFFLASH TAMOYILLARI

Jonbo'tayeva Zumradxon Abdujabborovna

*Turan International University
Gumanitar fanlar va pedagogika
fakulteti
"Filologiya" kafedrasи
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida ideonimlar mavzusi bo'yicha olib borilgan ishlar umumlashtirilib, ularning tasniflash tamoyillariga alohida to'xtalib o'tilgan.Jumladan,semantik tamoyil, grammatick tamoyil, pragmatik tamoyil tushunchasi keng qamrovda yoritilgan.

Kalit so'zlar: semantik tamoyil,grammatik tamoyil,pragmatik tamoyil

KIRISH:


Ideonimga A.V.Superanskaya tomonidan shunday ta'rif berilgan: "ideonim insonning aqliy, g'oyaviy va badiiy faoliyati mahsuli bo'lgan narsalar bir donasining atoqli otidir." [Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / – М.: Наука, 1973.],

E.Begmatov va N.Uluqovlarning fikriga ko'ra, "Ideonim (yun. idea g'oya + onoma - atoqli ot) - tarixiy asarlar, hujatlar atoqli oti". [Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. -Namangan, 2006.- B. 33] Bizningcha, bu ta'riflar bir-birini to'ldiradi, ya'ni "ideonim" atamasi inson faoliyatining aqliy, g'oyaviy va badiiy sohalarida yuzaga kelgan turli xil nomlarni ifodalaydi

Fanda tasniflash jarayoni inson ongi va tilshunoslik tadqiqotlarida asosiy o'rinni egallaydi. Bu jarayon orqali inson atrof-muhitdagi predmetlar va hodisalarini ularning umumiyl xususiyatlari asosida sinflarga ajratadi, o'xshashliklarni aniqlaydi va ularni mantiqiy guruhlarga birlashtiradi. Jorj Lakoffning ta'kidlashicha, kategoriyalar nafaqat sodda tizim yoki tasniflash usuli, balki inson tafakkurining muhim vositasidir, ya'ni biz dunyoni tushunish va tahlil qilishda tasniflardan asosiy vosita sifatida foydalananamiz. [Лакофф Дж. Когнитивное моделирование/ Дж. Лакофф// Языки и интеллект. – М. : Прогресс, 1996.]

Tasniflar inson onging fundamental vositalaridan biri bo'lib, ular orqali murakkab dunyoning chyeksiz xilma-xillikdagi narsa va hodisalari mantiqiy guruhlarga ajratiladi. Masalan, "meva" toifasi olma, nok, banan kabi yuzlab individual ob'yektlarni umumlashtiradi. Shuningdek, idrok jarayoni optimallash tiriladi. Har bir yangi ob'yektni alohida o'rganish o'rniga, allaqachon mavjud bo'lgan toifalar tizimiga moslashtiriladi, bu esa kognitiv tejamkorlikni ta'min laydi.

Tasniflar orqali muloqot imkoniyati osonlashadi. Umumiyl kategoriyalar tilning leksik tizimini shakllantiradi. Masalan, "hayvon" tarzidagi umumiyl atama millionlarcha individual mavjudotlarni qamrab oladi. Shu tariqa, bilimlarni



tizimlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tasniflar (masalan, biologik turlar) kategoriyalashning rivojlangan shakllaridir. Har qanday fan o‘zining kategoriyalar tizimiga ega.

ASOSIY QISM:

Ma’lum bir arxisxema (umumiya sema) asosida birlashuvchi so’z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi.[Xoziyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. -B.87]. Ideonimlarni tasniflashda qo’llaniladigan tamoyillar ularning ma’nosi, tuzilishi va ijtimoiy rolini tahlil qilishga asoslanadi.

Semantik tamoyil. Semantik tamoyil ideonimlarning ma’nosi yoki mazmuniga asoslanadi. Bu tamoyil nomning qaysi soha bilan bog‘liqligini, uning ma’naviy yoki madaniy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Masalan, “Navoiy” roman nomida adabiyot namoyandasasi va tarixiy shaxs sifatidagi shoir haqidagi asar ekanligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora bor. “Ikki eshik orasi” romanining nomi esa ramziy-majoziy ma’noga ega bo‘lib, hayot, umr mazmuni-mohiyatini falsafiy mushohada qilish asosida nomlangan.


Shu nuqtai nazaridan, semantik tamoyil ideonimlarni ularning ma’no-mazmun jihatasi asosida tasniflashga qaratilgan:

- Leksik ma’no (so‘zning lug‘aviy tarkibi)
- Kontekstual ma’no (qo’llanilish sohasi)
- Madaniy-ma’naviy konnotatsiya (tarixiy, ijtimoiy yoki badiiy mazmuni)

Ideonimlar semantikasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

(biblionimlar asosida)

Turi	Ta’rifi	Misollar
Tarixiy -semantik	Tarixiy shaxs, hodisa yoki davrga aloqador nomlar	“Ulug’bek xazinasi” (O.Yo -qubov); “Navoiy” (Oybek); “Abulfayzxon” (Fitrat); “Jaloliddin Man-guberdi”(M.Shayxzoda)
Madaniy - semantik	Madaniy qadriyat, an’ana yoki badiiy asarga ishora qiluvchi nomlar	“Jannatga yo’l”(A.Oripov) “Iymon”(I.Sulton), “Odamiylik mulki”(T.Malik)
Gyeografik-semantik	Joy nomlari (toponimlar) ularning geografik yoki iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra	“O’tror” (M.Osim), “Turkiston qayg ‘usi” (A.Sog‘univ), “Farg ‘ona tong otguncha” (M.Ismoilov), “Qora kamar”




		(Sh.Xolmirzayev), “Asqartog ‘ tomonlarda” (A.A’zam)
Ideologik-semantik	Siyosiy yoki mafkuraviy tushunchalarni ifodalovchi nomlar	“Ulug‘ saltanat” (Muhammad Ali), “Urushning so‘nggi qurboni” (O‘.Hoshimov), “Kafansiz ko‘milganlar” (Shukrullo),
Poetik-semantik	Badiiy tafakkur mahsuli sifatidagi ramziy-majoziy nomlar	“O‘tkan kunlar” (A.Qodiriy)“Kecha va kunduz” (Cho‘lpon), “Ruhlar isyoni” (E.Vohidov), “Otamdan qolgan dalalar” (Tog‘ay Murod),
Mifologik - semantik	Xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida yoki ularga ishora qiluvchi nomlar	“To‘maris” (M.Osim), “Bog‘i Eram” (Isajon Sulton), “Farishta” (Isajon Sulton)

Ideonimlarning semantik maydonlari tilning leksik tizimini tushunishda yordam beradi, nomlarning lingvistik, mafkuraviy va tarixiy kontekstini ochib beradi. O‘zbek tilida semantik tamoyil, ko‘pincha, nomning tarixiy yoki madaniy kontekstiga bog‘liq bo‘lib, milliy-madaniy, ijtimoiy xususiyatlarini ochib beradi.

Grammatik tamoyil ideonimning tuzilishiga oid jihatlarini o‘rganadi. O‘zbek tilida ideonimlar sodda so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, to‘liqsiz gap, gap, undalmali gap shakllarida uchraydi:

1. Sodda so‘zli ideonimlar bir asosli leksyemadan tashkil topadi. “Dilxiroj” kuyi, “Axborot” ko‘rsatuvi, “Qo‘rqma” romani (J.Jovliyev) kabi.
2. Qo‘shma so‘zdan iborat ideonimlar ikkita yoki undan ortiq mustaqil leksik birliliklarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Komponentlar orasida fonetik yoki grammatik bog‘lanish bo‘lmaydi. Masalan, “Lolaqizg‘aldoq” she’ri (M.Yusuf), “Oqsoqol” hikoyasi (O‘.Umarbekov), “Ajdarko‘l” qissasi (J.Ergasheva) kabi.
3. So‘z birikmasi shaklidagi ideonimlar ikki va undan ortiq so‘zlarning ma’no va grammatik jihatdan bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Bunday shakldagi nomlanish faol usul hisoblanadi. “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni, “Yangi O‘zbekiston” (gazeta), “Ayol qalbi” (ko‘rsatuv), “Shum bola” qissasi (G.G’ulom) kabi.
4. Juftlik shaklidagi uyushiq bo‘lakli ideonimlar an’anaviy usul hisoblanib,



mumtoz adabiyotda (“Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”) va xalq og‘zaki ijodida (“Tohir va Zuhra”, “Egri bilan To‘g‘ri”), ko‘pincha, ishqiy mavzudagi asarlarda va bolalar adabiyotiga oid nomlarda keng qo‘llanganligi bilan xarakterlidir. Masalan, “Zaynab va Omon” (H.Olimjon), “Fotima va Zuhra” (O‘.Umarbekov), “Sabo va Samandar” (U.Hamdam), “Qovoqvoy va Chanoqvoy”(Po‘lat Mo‘min).

5. Gap shaklidagi ideonimlar “Odam bo‘lish qiyin” (O‘.Umarbekov), “Bahor qaytmaydi” (O‘.Hoshimov), “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” (Tog‘ay Murod), “Boylar ham yig‘laydi” (serial nomi)

Bu asarlar nomlarining keltirilishi orqali yozuvchilar qahramon xarakterini batafsilroq ochib berishga harakat qilgan. Boshqa ko‘plab badiiy asarlar tarkibida ham ko‘plab ideonimlarni uchratishimiz mumkin. Bu holat ideonimlarning xalq hayotidan ayri emasligini, ijtimoiy munosabatlarda ma’lum bir vazifa bajarishini ko‘rsatadi.

Badiiy asarlarga qo‘yilgan nomlar – bibliionimlarning quyidagi shakllari ham kuzatildi:

1. Yakka turdosh otdan iborat ideonimlar: “O‘zbeklar” (Sh.Xolmirzayev), “Me’mor” (Mirmuhsin), “Bolalik” (Oybek), “Lolazor” (Murod Muhammad Do‘s), “Sarob” (A.Qahhor), “Yulduzlar” (O‘.Umarbekov).

2. Yakka atoqli otdan iborat ideonimlar: “Hadicha” (O‘.Umarbekov), “Abulfayzxon” (Fitrat), “Navoiy” (Oybek), “Jaloliddin Manguberdi” (M.Shayxzoda), “To‘maris” (M.Osim), “Beruniy” (O.Matjon).

3.Qaratqich kelishigidagi otli birikmalardan iborat ideonimlar: “Muhabbat qo‘shig‘i” (O‘.Umarbekov), “Dunyoning ishlari” (O‘.Hoshimov), “Sudxo‘ming o‘limi” (S.Ayniy), “Ajdodlarimiz fojasi” (M.Osim), “Sariq ajdar hamlasi” (M.Egamberdiyev).


4.Sifatlovchi-aniqlovchili ideonimlar: “Qora kamar” (Sh.Xolmirzayev), “Tushda kechgan umrlar” (O‘.Hoshimov), “O‘tkan kunlar” (A.Qodiriy), “Qutlug‘ qon” (Oybek), “Yulduzli tunlar” (P.Qodirov), “Oltin yaproqlar” (O‘.Umarbekov).

5.Uyushiq bo‘laklar asosida shakllangan ideonimlar: “Kecha va kunduz” (Cho‘lon), “Yo‘qotganlarim va topganlarim” (S.Ahmad), “Ota va o‘g‘il”, “Fotima va Zuhra” (O‘.Umarbekov).

6.Sodda gap shaklida qo‘llangan ideonimlar: “Odam bo‘lish qiyin” (O‘.Umarbekov), “Bahor qaytmaydi” (O‘.Hoshimov), “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” (T.Murod).

7.Ko‘makchili birikma shaklida qo‘llangan ideonimlar: “Arizasiga ko‘ra”, “Mangu hayot bo‘sag‘asida”.

8.To‘liqsiz gap shaklida qo‘llangan ideonimlar: “Yer yonganda” (O‘.Umarbekov),



9.Tarkibida undalma ishtirok etgan ideonimlar: “Qayerdasan, Mariko?” (O.Yoqubov), “Shoshma, quyosh” (O’.Umarbekov), “Alvido, bolalik” (T.Malik).

Pragmatik tamoyil. Pragmatika so’zlarning so’zma –so’z ma’nosini bilan ularning ijtimoiy kontekstdagi mo’ljallangan ma’nosini o’rtasidagi farqni ko’rib chiqadi. Bu kinoya ,metafora va niyat kabi narsalarni hisobga oladi.[Qulmanova M.zenodo.11395196.] Pragmatik tamoyil ideonimning ijtimoiy yoki kommunikativ vazifasiga qarab tasniflashni nazarda tutadi. Nomlarning rasmiy yoki norasmiy kontekstda ishlatilishini o’rganish bu tamoyilning asosiy jihatidir. Pragmatik tamoyilga ko’ra, ideonimlarni ularning ijtimoiy yoki kommunikativ vazifasiga qarab tasniflashda quyidagi jihatlar asosiy ahamiyatga ega. Rasmiy kontekstda ishlatiladigan ideonimlar ilmiy, diplomatik, huquqiy yoki rasmiy hujjatlarda qo’llaniladi. Misol: "Birlashgan Millatlar Tashkiloti", "Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi".


Pragmatik tamoyil ideonimlarning shakllanishi va qo’llanilishini tilning kommunikativ funksiyasi, ijtimoiy kontekst va nutqiy vaziyat bilan bog‘lab o’rganadi. Bu tamoyilga ko’ra, ideonimlarning tanlanishi va ishlatilishi nutqning maqsadi, auditoriyasi va ijtimoiy muhitiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, pragmatik tamoyil quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Kommunikativ maqsad. Ideonimlarning tanlanishi nutq egasining muayyan kommunikativ maqsadiga xizmat qiladi. Masalan, rasmiy kontekstda aniq, neytral va standartlashtirilgan ideonimlar ishlatilsa, norasmiy muhitda emosiyalarini ifodalovchi, obrazli yoki so’zlashuv uslubiga xos ideonimlar qo’llanilishi mumkin.

2. Auditoriyani hisobga olish. Ideonimlarning tanlanishi auditorianing bilim darajasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy mavqeiga moslashtiriladi. Masalan, ilmiy matnda murakkab atamalar va terminlar ishlatilsa, ommaviy axborot vositalarida keng auditoriyaga tushunarli bo’lgan sodda va ommabop ideonimlar qo’llaniladi.

3. Ijtimoiy kontekst. Ideonimlarning ishlatilishi ijtimoiy muhit, vaziyat va munosabatlarga bog‘liq. Masalan, rasmiy uchrashuvlarda hurmatni ifodalovchi unvonlar va rasmiy nomlar ishlatilsa, do’stona suhbatlarda norasmiy murojaat shakllari va taxalluslar qo’llaniladi.

Ideonimlarning shakllanishi va ishlatilishida tilning ichki qonuniyatları, xususan, leksik va grammatic qatlamlarning o’zaro ta’siri muhim rol o’ynaydi. Shuningdek, tillarning o’zaro ta’siri natijasida o’zlashma so’zlar va yangi leksemalarning paydo bo‘lishi ham ideonimlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. O’zbek ideonimlari shakllanishida leksik qatlama tarkibidan kelib chiqib, turkiy, fors-tojik, arab, rus tillari, keyingi davrda esa ingliz tilidan o’zlashgan elementlarni kuzatish mumkin. Ba’zi hollarda, ayniqsa, teleko’rsatuvlar va Internet matbuotida rus va ingliz tillaridan o’zlashmagan varvarizmlar qo’llanilishi kuzatiladi. “Yashirin kamera”, “Millar” postda”, “Xayrli kun”, “Biznes market”, “Oydin hayot Live” kabi. Oxirgi nomdagi “live” (talaffuzi - layf) leksemasi inglizcha so’z bo’lib, o’zbek tiliga



o‘zlashmagan, ya’ni varvarizm hisoblanadi. Demak, ko‘rsatuv nomida “live” so‘zining noo‘rin ishlatilishi nutq madaniyatining buzilishiga olib keladi.

Pragmatika – til birliklarining qanday qilib kontekstda ishlatilishi va ularning nutqdagi maqsadini o‘rganadi. Ideonimlar pragmatik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega. Ideonimlar o‘quvchi yoki tinglovchida ma’lum hissiyotlar (hayrat, qiziqish, qo‘rquv) uyg‘otadi. Masalan: "Zaharli hayot"(asar) – tabiatan chuqur dramatizmga asoslangan hayat tasvirini anglatadi. Ba’zi ideonimlar muallifning nuqtai nazarini mustahkamlash uchun ishlatiladi.

Ko‘pincha, ideonimlar asar syujeti yoki mazmuni bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan: "Qorabosh" (Cho‘pon) – qorong‘u kuchlarni ifodalovchi ramziy nom. X.To‘xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asarida ota-onadan erta ayrılgan yosh yigitchaning ukalariga bosh bo‘lib, hayat mashaqqatlarini yengishi haqida hikoya qilinadi.


Ideonimlar shakllanishida pragmatik tamoyilni takomillashtirish uchun quyidagilarga amal qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

1. Til sofligiga e’tibor. O‘zbek tilining sofligini saqlash va varvarizmlarning noo‘rin qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik.
2. Kommunikativ maqsadga muvofiqlik. Ideonimlarning tanlanishi nutqning kommunikativ maqsadiga, auditoriyasiga va kontekstiga mos bo‘lishini ta’minlash.
3. Lingvistik me’yorlarga rioya qilish. Ideonimlarni shakllantirishda o‘zbek tilining grammatik va leksik me’yorlariga qat’iy rioya qilish.
4. Madaniy qadriyatlarni hurmat qilish. Ideonimlarning tanlanishi o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, an’analari va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni aks ettirishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi ideonimlarining shakllanishida pragmatik tamoyil turli darajalarda namoyon bo‘ladi va uni takomillashtirish orqali tilning sofligini saqlash, kommunikativ samaradorligini oshirish va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishga erishish mumkin.sh va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishga erishish mumkin.

XULOSA:

Onomastik birliklar tilning o‘zgarmas tizimi emas, balki ijtimoiy muhit ta’sirida doimo yangilanib, o‘zgarib turuvchi o‘ziga xos alohida qatlam hisoblanadi. Onomastikaning nazariy asoslari, asosan, rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va qiyosiy tahliliga ko‘proq e’tibor berilgan. O‘zbek olimlari onomastik birliklarning lingvistik va madaniy jihatlarini chuqur o‘rganganlar. **Funksional mezonga ko‘ra** ideonimlar – kommunikativ funksiyali, ma’lumot beruvchi, ekspressiv, terminologik, sosiolekt asosidagi nomlarga ko‘ra o‘rganiladi. Ideonimlar umumiy otlardan farqli o‘laroq, ma’lum bir ob’yektga tegishli bo‘lib, tilning



semantik va pragmatik jihatlarini boyitadi.O‘zbek tilshunosligida onomastik nomlar tezaurusini ishlab chiqish uchun mikroko‘lam va subko‘lamlarni o‘rganish va ularni tizimli tahlil qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. - Namangan, 2006.- B. 33.;
2. Лакофф Дж. Когнитивное моделирование/ Дж. Лакофф// Языки и интеллект. – М. : Прогресс, 1996.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / А.В.Суперанская. – М.: Наука, 1973.;
4. Qulmanova Mohinur .”Pragmatika –tilshunoslikning eng muhim bo’g’ini”. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar:Nazariya va amaliyot”nomli ilmiy,masofaviy,onlayn konferensiya, <https://doi.org/10.5281/zenodo.11395196>
5. Xoziyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati.-B.87